



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 йил 7 март

74-11-163-Q/22

Фарғона тумани ҳокимлиги

### **Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.
2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish 2-bosqich jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Yillik texnik ko‘rikni sifatli va belgilangan muddatda o‘tkazishni ta’minlash texnik ko‘rik o‘tkazish komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.
5. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun

jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari – bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko'p bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo'lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko'rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazishning ilgari o'rnatilgan muddatlaridan qat'i nazar, ularni Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o'rinlarda - DYHXX) organlarida ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) vaqtida (birinchi marta ro'yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

6. Mazkur qarorning 2 va 3-bandlarida ko'rsatilgan transport vositalarining texnik ko'rigi:

birinchi marta – 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr - 31 oktyabrda o'tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko'rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o'tkaziladi.

7. Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko'rikdan o'tkazishda:

transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko'rsatilgan ma'lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikasiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovoqli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

8. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

9. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish majburiyati yuklatilsin.

10. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son qarori 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021-yil 5-martdagi "Tumandagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli avtomototransport vositalarini 2021-yilda majburiy texnik ko'rikdan sifatli o'tkazish haqida"gi 98-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

12. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

13. Belgilansinki, mazkur qaror "Vodil yog'dusi" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosari O'.Teshajonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Muminov

Фарғона туман ҳокимининг  
2022 йил 7 мартдаги  
74-11-163-Q/22-сон қарорига  
1-илова

**Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi**

**TARKIBI**

**Komissiya raisi :**

Q. Ristayev - Tuman IIB YXXG katta inspektori podpolkovnik

**Komissiya a‘zolari:**

- Lavozimiga ko‘ra* - Farg‘ona viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri
- X.Akbaraliyev - Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik xodimi
- N.Xamroyev - Tuman IIB YXXG ma‘muriy amaliyot inspektori, serjant
- U.Toshbekov - Tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi
- Sh.Madraximov - “Vodil imkon trans” MChJ mutaxassisi
- R.Jo‘rayev - “FAR CAR SERVICE CENTRE” MChJ rahbari

**Komissiya kotibi:**

*Lavozimiga ko‘ra* - Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori

Фарғона туман ҳокимининг  
2022 йил 7 мартдаги  
74-11-163-Q/22-сон қарорига  
2-илова

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining  
2022-yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish**

**J A D V A L I**

№	Tashkilot, korxonalar, xo'jalik va muassasalar nomi	Texnik ko'rik o'tkazish kunlari	Texnik ko'rik o'tkaziladigan joy	Mavjud transportlar soni			
				Avto	Moto	Tirkama	Jami
1.	Jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport	01.03.2022 31.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	14754	489	204	15447
2.	Tuman Agrosug'urta	04.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
3.	Vodil Ipakchilik kombinati	04.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	3			3
4.	Qishloq va suv xo'jalik boshqarmasi	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	3			3
5.	Vodil kibri ali sahovati x-k	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
6.	Vodil EED x/f	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1	1		2
7.	Jasurbek tabobati x/f	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1

8.	«Polvon» kichik korxonasi	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududidaa	2			2
9.	Tuman Xalk banki	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
10.	Vodilsharobsavdo ixtisoslashtirilgan korxonasi	05.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	3			3
11.	Abduraxmontrans MChJ	05.03.2022	FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	6			6
12.	«Tanikulov D». o'quv xususiy korxonasi	06.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	8			8
13.	Tuman Moliya bo'limi	06.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududidaa	1			1
14.	«Rivoj-98»	06.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	6		1	7
15.	Zufar Alijon KTXSI-Ch	06.03.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
16.	Qo'rg'ontepa Akbaraliyev Amirdin MChJ	07.03.2022	Qo'rg'ontepa	4			4
17.	Vodiy-R.Raximov-fayzi MMTP	07.03.2022	Garaj	15			15
18.	Mindon-A.Raxmonaliyev MMTP	11.03.2022	Garaj	10			10
19.	Kamolboyvachcha f-x	11.03.2022	Mindon MMTP	2			2
20.	Mindon trans x-k	15.04.2022	Mindon MMTP	7			7
21.	«Mindon» kasb-hunar kolleji	11.03.2022	Mindon MMTP	3			3
22.	Vodiy imkontrans UBD	12.03.2022	Mindon MMTP	12			12
23.	Oq oltin MMTP	12.03.2022	Garaj	12			12
24.	Qovunchi ota f-x	12.03.2022	Garaj	2			2

25.	Gulshan Axmadjon Xusanboyev f-x	12.03.2022	Garaj	1			1
26.	Maftun Muxlis MChJ	12.03.2022	Garaj	4			4
27.	Chimen barakasavdoservis xfk	13.03.2022	Garaj	17			17
28.	Chimyon forum MChJ	13.03.2022	Garaj	3			3
29.	“Ulug‘ jaxon fayz” MChJ	02.05.2022	Garaj	14			14
30.	Xazrati-Xuvaydo MMTP	14.03.2022	MMTP Garaji	8			8
31.	Soy-bo‘yi chorva f-x	14.03.2022	MMTP Garaji	1			1
32.	Xurshidabonu Davron d-x	14.03.2022	MMTP Garaji	1			1
33.	Nurafshon sanatoriyasi	15.04.2022	MMTP Garaji	6			6
34.	Chimen Neft Invest x-k	18.04.2022	MMTP Garaji	3		1	4
35.	Jaxongir Qaxramon x-k	14.03.2022	MMTP Garaji	2			2
36.	Farangiz x/f	14.03.2022	MMTP Garaji	1			1
37.	A.Qodir x-k	17.03.2022	MMTP Garaji	2			2
38.	Avgoelektroavtomatika	17.03.2022	MMTP Garaji	2			2
39.	Chimyon profilaktoriyasi	17.03.2022	MMTP Garaji	3			3
40.	Muxandis firmasi	17.03.2022	MMTP Garaji	2			2
41.	Chorvador fermer xo‘jaligi	17.03.2022	MMTP Garaji	2			2
42.	Oqbilol palmasi	18.03.2022	Garaji	1			1
43.	Turoy chashmasi	18.03.2022	Garaji	2			2
44.	Bolida milk MChJ	19.03.2022	Garaj	49		1	50
45.	Mirur najot MChJ	19.03.2022	Garaji	6			6
46.	Yordon fermer xo‘jaligi	19.03.2022	Garaji	9			9
47.	T.Shodiyeva MMTP	20.03.2022	MMTP Garaji	12			12
48.	Farg‘onaavtoklass MChJ	24.03.2022	Garaji	3			3
49.	Avval MXKX kolleji	24.03.2022	Garaji	3			3
50.	Rustam Avto trans MChJ	05.05.2022	Garaji	45			45
51.	Maxmudjonyoshlik KTICH	25.03.2022	Garaji	5			5
52.	Xseyn - Bobbi x-k	25.03.2022	Garaji	2		1	3
53.	Usmonobod-Tarovati MMTP	27.03.2022	MMTP Garaji	7			7
54.	Jasur avto trans servis MChJ	03.03.2022	Garaji	48			48
55.	Kaptarxona kasb-hunar kolleji	27.03.2022	Garaji	1			1
56.	Dugoba nihol servis	01.04.2022	Garaji	1			1
57.	Far tuman madaniyat va sport bo‘limi	02.04.2022	Garaji	2			2
58.	Vodil bolalar sanatoriyasi	03.04.2022	Garaji	4			4
59.	Shukrullo savdo fayz	03.04.2022	Garaj	1	1		2
60.	Vodil x-k	03.04.2022	Garaj	1			1
61.	Sher avto plyus	03.04.2022	Garaj	1			1



62.	“Ramzxon avto trans” MChJ	04.04.2022	Garaj	43			43
63.	Avtomobilchi kichik korxonasi	04.04.2022	Garaj	5		1	56
64.	Ferteksinterneysn	04.04.2022	Garaj	1			1
65.	Mindonobod texnolog plast	04.04.2022	Garaj	4			4
66.	Karvon x/f	04.04.2022	Garaj	1			1
67.	Muxamad ziyo savdo MChJ	13.04.2022	Garaj	2			2
68.	Chimyon sanatoriyasi	15.04.2022	Garaj	13			13
69.	Chimyon pansionati	09.04.2022	Garaj	9			9
70.	Zilol sihatgohi	09.04.2022	Garaj	4			4
71.	«Vatanparvar» tashkiloti	14.04.2022	Garaj	12	3		15
72.	Tuman yo‘l qurilish boshqarmasi	15.04.2022	Garaj	26		2	28
73.	«Qishloqxo‘jalikimyo» Farg‘ona tum. Bo‘limi	15.04.2022	Garaj	5			5
74.	Viloyat o‘simliklarni himoya qilish	15.04.2022	Garaj	5			5
75.	Pulmonologiya shifoxonasi	10.04.2022	Garaj	1			2
76.	Tuman SSB avtokorxonasi	18.04.2022	Garaj	3			3
77.	Tuman obodonlashtirish xo‘jalik bo‘limi	21.04.2022	Garaj	3	1		4
78.	Veterenariya bo‘limi	21.04.2022	Garaj	1			1
79.	Zokir ota fermer xo‘jaligi	23.04.2022	Garaj	1			1
80.	Tuman sanepidstansiyasi	24.04.2022	Garaj	4			4
81.	Tuman gazlashtirish idorasi	24.04.2022	Garaj	17			17
82.	Tuman hokimiyati	25.04.2022	Garaj	6			6
83.	Chimyon chashmasi MChJ	27.04.2022	Garaj	2			2
84.	Viloyat hokimligi mehmonxonasi	28.04.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	3	1		4
85.	Yuqori nafas yo‘llari shifoxonasi	29.04.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
86.	Abduxakim Abdulfayz bog‘i f-x	01.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
87.	Sarvinoz bog‘i Dilnavoz	01.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	6			6
88.	MK Vatanparvar	04.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	8			8

89.	Dildora Dilmurod invest MChJ	05.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
90.	Fargʻona stroyblok koʻp tarmoqli i-ch savdo firma	05.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
91.	Avval trans servis MChJ	06.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	4			4
92.	Fer stal bunyodkor MChJ	06.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	4			4
93.	Vodil imkon trans MChJ	07.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	35			35
94.	Kuzmonbo'y Kobiljon trans	11.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
95.	Fayz gʻisht servis	11.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	3			3
96.	«Shavkat» f/x	12.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
97.	Jaloliddin Soipov f-x	12.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
98.	Avval naslli parranda	13.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	3			3
99.	Zar kokil barakot MChJ	13.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1

100.	«Bunyod Shodmon imkon qurilish MChJ»	14.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
101.	Iste'molchilar XXX	17.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
102.	«Progress Teskt» x-x	15.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
103.	«Vodil qaynoq kulchalari» x-x	15.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
104.	«Bekoyl Yusin» KTIGYeF	15.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
105.	Vodil ipak yigiruv sh/k	12.04.2022	Garaj	3			3
106.	Jaxongir Qaxramon MChJ	12.04.2022	Garaj	1			1
107.	Qo'rg'ontepa nasildor chorva	13.04.2022	Garaj	3			3
108.	Madat MChJ	13.04.2022	Garaj	1			1
109.	Farg'ona o'rgatuvchi MChJ	21.05.2022	Garaj	23	1	1	25
110.	Madaniyat va sport bo'limi	21.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
111.	Qurilish sanoat k.x.k	22.05.2022	Garaj	3			3
112.	K/X va xizmat ko'rsatish k	22.05.2022	Garaj	2			2
113.	Chimyon forum MChJ	19.05.2022	Garaj	5			5
114.	Log'on agrosanoat Lyuks	19.05.2022	Garaj	13		2	15
115.	Avval delta MChJ	23.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
116.	Baliq sanoat A Firma	23.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
117.	Ozodbek D/X	24.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1

118.	Vodiy Mega KarerMChJ	24.05.2022	Garaj	3			3
119.	Farg'ona baraka non MChJ	26.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
120.	Nodirbek F/X	26.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
121.	RubergoldMChJ	27.05.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
122.	Vodil Avtoboshbekati MChJ	24.06.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	10			10
123.	Avtomobilchi MChJ	25.06.2022	Garaj	7		2	9
124.	Komiljon Akbar F/x	25.06.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
125.	Abdulajon ota F/x	27.06.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	1			1
126.	Shukrona Fayzli X/k	27.06.2022	«FAR CAR SERVICE CENTRE» MChJ hududida	2			2
127.	Bibizarina X/k	29.06.2022	Garaj	2			2
128.	Mebel mega servis X\k	29.06.2022	Garaj	2			2

Фарғона туман ҳокимининг  
2022 йил 7 мартдаги  
74-11-163-Q/22-сон қарорига  
3-илова

### Texnik ko'rikdan o'tkazish 2-bosqich

#### JADVALI

№	Transportga ega bo'lgan korxonalar, tashkilot va xo'jaliklar nomlari	Mavjud transportlar soni				Texnik ko'rikdan o'tkaziladigan kun	Texnik ko'rikdan o'tkaziladigan joy
		Avto	Moto	Tirkama	Jami		
1.	"Vodiy imkontrans" UBD	12			12	02.09.2022	Garajida
2.	Xseyn - Bobbi x-k	3			3	15.09.2022	Garajida
3.	"Vodil imkon trans" MChJ	7			7	16.09.2022	Garajida
4.	"A.Kodir" x-k	1			1	18.09.2022	Garajida
5.	"Mirur najot" MChJ	6			6	20.09.2022	Garajida
6.	«Vodil avtoshoxbekati» MChJ	10			10	19.09.2022	Garajida
7.	«Rustam avto trans»MChJ	37			37	27.10.2022	Garajida
8.	«Ramizxon avto trans»MChJ	43			43	28.09.2022	Garajida
	<b>Jami</b>	<b>119</b>			<b>119</b>		